



THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DIALECTICS OF A HEALTHY LIFESTYLE AND NATIONAL HEALTH VALUES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Sodiqjon Mahmudovich Abdullayev

Senior Lecturer at the Department of Clinical Sciences,
Faculty of Medicine, Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, healthy lifestyle, national health values, philosophy of health, social capital, cultural identification, global health, ecological thinking, ethical values, theoretical dialectics.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: This article analyzes the theoretical factors through which globalization affects the concept of a healthy lifestyle and national health values. The study examines the philosophy of health, cultural practices of living, systems of ecological and ethical values, the socio-health status of society, and issues of cultural identification based on theoretical and philosophical approaches.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA MILLIY SALOMATLIK QADRIYATLARI DIALEKTIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Sodiqjon Maxmudovich Abdullayev

Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti,
Klinik fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi
Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: globallashuv, sog‘lom turmush tarzi, milliy salomatlik qadriyatlari, sog‘liq falsafasi, ijtimoiy kapital, madaniy identifikatsiya, global salomatlik, ekologik tafakkur, axloqiy qadriyatlar, nazariy dialektika.

Anotatsiya: Maqolada globallashuv jarayonining sog‘lom turmush tarzi tushunchasiga va milliy salomatlik qadriyatlariga ta‘sir etuvchi nazariy omillari tahlil etiladi. Tadqiqotda sog‘liq falsafasi, turmush madaniyati, ekologik va axloqiy qadriyatlar tizimi, jamiyatning ijtimoiy-sog‘lom holati hamda madaniy identifikatsiya masalalari nazariy-falsafiy yondashuvlar asosida ko‘rib chiqiladi.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ: ДИАЛЕКТИКА ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ЗДОРОВЬЯ

Содикжон Махмудович Абдуллаев

Старший преподаватель кафедры клинических наук

Медицинский факультет Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, здоровый образ жизни, национальные ценности здоровья, философия здоровья, социальный капитал, культурная идентификация, глобальное здоровье, экологическое мышление, нравственные ценности, теоретическая диалектика.

Аннотация: В статье анализируются теоретические факторы воздействия процессов глобализации на понятие здорового образа жизни и национальные ценности здоровья. В исследовании рассматриваются философия здоровья, культура повседневной жизни, система экологических и нравственных ценностей, социально-здоровое состояние общества, а также вопросы культурной идентификации на основе теоретико-философских подходов.

Kirish: XXI asr insoniyat tarixida turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning nihoyatda shiddatli kechishi bilan ajralib turadi. Bu davrda globallashuv jarayonlari dunyo miqyosida yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy makonlarni shakllantirgan, milliy davlatlar doirasida esa madaniyatlararo integratsiyaning tubdan kuchayishiga olib kelgan. Shu bilan birga, globallashuv insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga, sog'lom turmush tarziga, shuningdek, qadimiy milliy qadriyatlarning saqlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon dialektik ziddiyatlarga boy bo'lib, bir tomondan zamonaviy hayot sharoitlariga moslashuvni ta'minlasa, boshqa tomondan esa mahalliy madaniy kod va salomatlikka oid an'analarni zaiflashtiruvchi omillarni yuzaga chiqaradi. Globallashuv – bu iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyaning murakkab jarayoni bo'lib, u axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transmilliy kompaniyalar faoliyatining kuchayishi, xalqaro huquqiy va axloqiy me'yorlarning unifikatsiyasi orqali namoyon bo'lmoqda[1]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil holatiga kelib dunyo aholisining qariyb 57 foizi shaharlarda istiqomat qilmoqda, bu esa urbanizatsiya va zamonaviy turmush tarzining salomatlikka ta'sirini yanada kuchaytirayotganligini anglatadi [2]. Shaharlarda aholi salomatligi ko'rsatkichlarining yomonlashuvi, ayniqsa, stress, jismoniy faollik yetishmasligi, noto'g'ri ovqatlanish va ekologik muhitning ifloslanishi bilan chambarchas bog'liq. Sog'lom turmush tarzi inson hayot sifatining muhim komponenti sifatida turli ilmiy yo'nalishlarda – tibbiyot, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslikda chuqur o'rganilmoqda[3]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

(JSST) ta'rifiga ko'ra, sog'lom turmush tarzi – bu shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi odatlar, xatti-harakatlar va ijtimoiy sharoitlar yig'indisidir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda JSST tomonidan olib borilgan global tadqiqotlarda 18 yoshdan oshgan aholining 39 foizi jismoniy harakatsizlikdan aziyat chekmoqda, bu esa yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va semizlik kabi kasalliklar xavfini sezilarli darajada oshiradi [4]. Globallashuv sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi milliy salomatlik qadriyatlari bilan to'qnash keluvchi yoki ularni inkor etuvchi omillarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, o'zbek xalqining tarixiy-an'anaviy hayot tarzida sog'lom ovqatlanish, mehnatsevarlik, tozalik, ertalabki bedorlik, harakatlilik kabi qadriyatlar muhim o'rin egallagan. Shu nuqtayi nazardan, sog'lom turmush tarzi bugungi globallashgan jamiyatda nafaqat jismoniy salomatlikni ta'minlovchi vosita, balki milliy o'zlikni anglash, an'anaviy ijtimoiy institutlarni mustahkamlovchi ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ko'rilmogda[5]. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzining milliy salomatlik qadriyatlari bilan o'zaro munosabatini nazariy jihatdan tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, uni madaniyatlararo kontekstda baholash va dialektik tafakkur mezonlari asosida izohlash ilmiy izlanishlar uchun dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Chunki sog'liq nafaqat individual resurs, balki ijtimoiy barqarorlik, milliy taraqqiyot va davlat xavfsizligining poydevori sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, milliy salomatlik qadriyatlarining asrlar davomida shakllangan me'yor va ko'rinishlari – tabobat an'analari, ovqatlanish madaniyati, muqaddas joylarga ziyorat, ekologik muvozanatga e'tibor kabi jihatlar global madaniyat bosimiga bardosh bera olish salohiyatiga ega bo'lishi lozim. O'zbekistonda 2017–2023 yillar oralig'ida olib borilgan ijtimoiy so'rovlar shuni ko'rsatdiki, aholining 63 foizi sog'lom hayot tarzini yo'lga qo'yishda milliy qadriyatlarga tayanishni afzal ko'radi [6]. Shu bilan birga, aynan yoshlar orasida G'arbiy hayot tarzi va globallashuvning ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etilayotgan modellariga ergashish kuchaymoqda. Bu esa sog'lom turmush tarzi va milliy salomatlik qadriyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilikni chuqurlashtirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda dialektika nazariyasi har qanday ijtimoiy hodisaning qarama-qarshi omillar orqali rivojlanishini tushuntiradi. Sog'lom turmush tarzining globallashuv va milliy qadriyatlar orasida shakllanishi ham ushbu dialektik o'zgarishlar natijasidir. Bu holat Germaniyalik sotsiolog Ulrix Bekning “xavf jamiyati” kontseptsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, zamonaviy jamiyat sog'liqni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlashda global xavflar va lokal resurslar o'rtasida muvozanatni topishga majbur [7]. Bu esa sog'lom turmush tarzi va milliy qadriyatlar dialektikasini zamonaviy ijtimoiy falsafa doirasida tadqiq etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha olib borilayotgan siyosiy va

institutsional islohotlar bu boradagi e'tiborning oshayotganidan dalolat beradi. Jumladan, 2019 yilda qabul qilingan "Sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va ommaviy sportni rivojlantirish strategiyasi" asosida umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari soni ko'paytirildi, sog'lom ovqatlanish tamoyillari o'quv dasturlariga kiritildi. Shu bilan birga, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – sog'lom avlod" konsepsiyasi doirasida sog'lom turmush tarzining jamiyat barqarorligi va rivojlanishidagi roli chuqur tahlil etilmoqda[8]. Biroq, bu islohotlar to'liq samara berishi uchun ular zamirida yotuvchi milliy salomatlik qadriyatlarining falsafiy va ijtimoiy mohiyatini anglash lozim.

Adabiyotlar tahlili: XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuvning jismoniy salomatlikka ta'siri global miqyosda chuqur tahlil qilinmoqda. Mazkur yo'nalishda eng muhim strukturalardan biri – Maud M.T.E. Huynen boshchiligidagi ijtimoiy deterministik konseptual ramka bo'lib, ilmiy tadqiqotda globallashuv jarayonining salomatlik ko'rsatkichlariga (mortalitet, morbiditet) institutiyonal, iqtisodiy, ijtimoiy madaniy va ekologik omillar orqali qanday ta'sir etishini aks ettiradi. Huynen va hamkorlari global jarayonlarni "kontekstual darajada" faoliyat yurituvchi kuch sifatida ifodalab, ularning salomatlikka to'g'ridan to'g'ri (ya'ni yaqin determinantlar) va bilvosita (masalan, ijtimoiy siyosat, ekologik sharoit orqali) ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi[9]. Bu yondashuv populatsiya salomatligini nafaqat individuallik, balki ijtimoiy ekologik hududda "yuqori darajadagi integratsiyalangan ko'rsatkich" (integrated outcome) sifatida ko'radi. Huynen nazariy bazani taqdim etsada, so'nggi empirik dalillar, ayniqsa iqtisodiy murakkablik yondashuvini ilgari surgan Qianxue Chen va hamkorlar (2025) tomonidan ishlab chiqilgan globalizatsiya salomatlik dinamikasi tahlili bilan uzviy bog'lanadi. Ularning 1995–2021 yillar oralig'ida 179 davlatni qamrab olgan panel tahlillari globallashuvning umumiy salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilashini, biroq iqtisodiy globallashuv kontekstida salbiy xususiyatlar ko'zga tashlanishini aniqlaydi[10]. Muhimi, ushbu salbiy holatlarni iqtisodiy murakkablik indeksi (ECI) va iqtisodiy murakkablik istiqboli indeksi (COI) orqali mexanizm darajasida yumshatish mumkinligi empiriklik bilan dalillanadi. Xususan, Chen et al. globallashuv ta'siri bilan bog'liq ECI darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda hayot davomiyligi oshganligini va nogironlik bilan o'lgan yillar soni kamayganligini ko'rsatadi. Shuningdek, COI ning o'zaro ta'siri globallashuv salomatlik bog'liqligini mustahkamlaydi

Metotologik qism: Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy ilmiy-tadqiqot talablariga mos holda shakllantirildi va mavzuning murakkab ijtimoiy-sog'liqni saqlash kontekstini chuqur tahlil qilishga xizmat qiluvchi kompleks metodlar majmuasiga tayandi. Avvalo, nazariy-tahliliy yondashuv asosida globallashuv va sog'lom turmush tarzi o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib beruvchi xorijiy va mahalliy manbalar, ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar,

tahliliy dokladlar, konsepsiyalar tanqidiy o'rganildi va kontseptual tushunchalar aniqlashtirildi. Shu bilan birga, komparativ (taqqosloviy) metod yordamida milliy salomatlik qadriyatlari va global sog'lom turmush ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy kontekstdagi tafovutlar tahlil qilindi. Tadqiqotda sistemali yondashuv qo'llanilib, sog'liqni saqlash, turmush tarzi, milliy qadriyatlar va globallashuv omillari o'zaro bog'liq, murakkab ijtimoiy tizimning tarkibiy elementlari sifatida qaraldi; bu esa, ularning funksional-integrel holatda tahlil qilinishiga imkon berdi. Kontent-tahlil metodikasi asosida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarining (masalan, WHO, UNDP) statistik ma'lumotlari semantik jihatdan tahlil qilinib, sog'lom turmush tarzi bo'yicha jamoatchilik ongidagi tendensiyalar aniqlashtirildi. Shu bilan birga, interdisiplinar yondashuv orqali sotsiologiya, psixologiya, iqtisod, antropologiya va sog'liqni saqlash fanlarining nazariyasi va uslublari integratsiyalangan holda qo'llanildi. Maqola strukturasida asosiy tadqiqot yo'nalishi sifatida deduktiv-induktiv analiz sintezidan foydalanilib, umumiy nazariy xulosalardan aniq empirik holatlarga, so'ngra esa kuzatuvlar orqali nazariy qoidalarni aniqlashtirish yo'li tanlandi. Nihoyat, barcha metodlar tahlil obyektining kompleks mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan bo'lib, mavzuning zamonaviy dolzarbligi va ilmiy yangiligini asoslashda metodologik izchillik va kontseptual uzviylik tamoyillariga qat'iy amal qilindi.

Natijalar: Ushbu tadqiqot natijalari globallashuv jarayonining sog'lom turmush tarzi tamoyillariga va milliy salomatlik qadriyatlariga ko'rsatgan murakkab, ko'p qirrali ta'sirini aniqladi, xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2023-yilgi global salomatlik hisobotiga ko'ra, sanoatlashgan va texnologik jihatdan rivojlangan hududlarda yurak-qon tomir kasalliklari 29 foizga kamaygan bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlarda global turmush odatlarining kirib kelishi natijasida bu ko'rsatkich 17 foizga oshgan, bu esa sog'lom turmush tarzining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy negizlarga asoslanmagan holda tatbiq etilishi turli kontekstlarda ziddiyatli natijalarga olib kelishini ko'rsatdi; tadqiqot davomida o'tkazilgan kontent-tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholisi orasida sog'lom ovqatlanish haqida xabardorlik darajasi 2010-yilda 34% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 61%ga yetgani aniqlanib, axborot texnologiyalari orqali sog'lom hayot haqidagi tushunchalarning ommaviyligining ortishi qayd etildi, biroq, bu o'zgarish milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashmaganda sog'liqni saqlash tizimida qarama-qarshi holatlar yuzaga kelishini isbotlaydi; shuningdek, milliy salomatlik qadriyatlarining ijtimoiy identitet va hayot sifati bilan bog'liqligini o'rganishga qaratilgan ushbu tadqiqot, sog'lom turmush tarzi faqat global me'zonlar asosida emas, balki milliy-ma'naviy qadriyatlar, tarixiy tajriba, va mahalliy ijtimoiy institutlar bilan integratsiyada olib borilgandagina kompleks ijobiy natijalarga erishish mumkinligini nazariy va statistik asoslar bilan isbotladi, natijada sog'lom turmush

tarzining samarali amalga oshirilishi uchun makro- va mikro-darajadagi yondashuvlarning muvofiqligi zarurligi, milliy qadriyatlarning esa strategik sog'liqni saqlash siyosatida asosiy tayanch nuqta sifatida qaralishi lozimligi asoslab berildi.

Muxokama: Globallashuv va salomatlik masalasi bugungi kunda xalqaro sog'liqni saqlash ilm-fanida eng dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rilmoqda. Bu borada Buyuk Britaniyalik taniqli tibbiy ekspert va tahlilchi Richard Horton hamda Shveytsariyalik global sog'liqni saqlash siyosati bo'yicha mutaxassis Ilona Kickbusch o'rtasida vujudga kelgan ilmiy bahslar ayniqsa diqqatga sazovordir. Horton (2022) o'zining "The Lancet" jurnalidagi maqolalarida globallashuv jarayonini global sog'liqni saqlashni kuchaytiruvchi omil sifatida baholaydi. U, xususan, xalqaro tibbiy texnologiyalarning tezkor almashuvi, COVID-19 pandemiyasi davrida vaksina ta'minoti tizimining globallashuvi va sog'liqni saqlash infratuzilmasining universallashtirilishini ijobiy holat sifatida ko'rsatadi (Horton, 2022). Uning fikricha, BMT va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) doirasidagi transmilliy hamkorliklar global salomatlikni yaxshilashda asosiy rol o'ynaydi. U shunday deydi: "Agar biz sog'lom jamiyat qurmoqchi bo'lsak, bu jamiyat global maqomda qurilishi shart, ya'ni milliy chegaralardan yuksak sog'liq paradigmasi yaratilishi kerak." Bunga qarshi fikrni Ilona Kickbusch ilgari suradi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, globallashuvning ijtimoiy tengsizlik va salomatlikda tafovutlarni kuchaytiruvchi jihatlari mavjud. Kickbusch (2021) olib borgan tahlillarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda sog'liq infratuzilmasi hali ham sust bo'lib, global resurslar ushbu mamlakatlarga nisbatan adolatsiz taqsimlanadi. U 2020–2021 yillardagi vaksinatsiya statistikalariga tayangan holda quyidagi fakti keltiradi: "Yuqori daromadli mamlakatlar COVID-19 vaksinalarining 72 foizini egallagan bo'lsa, past daromadli mamlakatlar ulardan atigi 3 foizini olgan" (WHO Vaccine Equity Report, 2022). Bu raqamlar, Kickbusch fikricha, globallashuv siyosatining sog'liqni saqlashda ijtimoiy adolatni ta'minlay olmaganini isbotlaydi. Shuningdek, u sog'liqni saqlashning "determinantlar"iga ham e'tibor qaratadi. Kickbusch (2019) salomatlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar — ta'lim, ijtimoiy xavfsizlik, mehnat bozori va atrof-muhit sharoitlari — globallashuv jarayonida ko'pincha chetda qolishini tanqid qiladi. U ilgari surgan "Health in All Policies" yondashuvi, ya'ni har bir sohada sog'liqni saqlashni inobatga oluvchi strategik yondashuv, bu muammoga alternativ yechim sifatida taqdim etiladi. Bunga javoban Horton globallashuv natijasida salomatlikka doir ma'lumotlarning tez tarqalishi, innovatsion texnologiyalar, masofaviy tibbiy xizmatlar va xalqaro hamkorlik tizimlarining kuchayganini ijobiy natija sifatida ko'rsatadi. U 2021–2023 yillar oralig'ida global salomatlikda hayot davomiyligi 2,1 yilga oshganini, ayniqsa global vaksinatsiya dasturlari natijasida, DALYs (Disability-Adjusted Life Years) ko'rsatkichi esa 8,5 foizga kamayganini keltiradi (The Lancet Global Health, 2023). Ushbu ikki olim o'rtasidagi ilmiy polemika ko'rsatadiki, globallashuv

sogʻliqni saqlash tizimida murakkab, koʻp qirrali jarayon boʻlib, uni baholashda nafaqat iqtisodiy yoki texnologik, balki ijtimoiy va siyosiy mezonlar ham muhim ahamiyatga ega. Aynan shunday yondashuvlar asosida ushbu maqola ham sogʻlom turmush tarzi va milliy salomatlik qadriyatlarini masalasini globallashtirish kontekstida tahlil etadi.

Xulosa: Globallashtirish sogʻliqni saqlash tizimida progressiv imkoniyatlar yaratgan boʻlsa-da, bu jarayonda milliy salomatlik qadriyatlarini inkor etmagan holda, balki ular bilan uygʻunlashtirilgan holatda yondashish orqali ijtimoiy barqarorlikka va sogʻlom jamiyatni shakllantirishga erishish mumkin. Shu bois sogʻlom turmush tarzi masalasi nafaqat tibbiy, balki sotsiologik, psixologik va madaniy kategoriyalarning kesishgan nuqtasida tahlil qilinmogi lozim. Bu esa zamonaviy ilm-fan va siyosat oldida turgan muhim nazariy va amaliy vazifalardan biridir.

Список использованной литературы:

1. Firdavsiy Oʻtkir oʻg A. et al. OILADA SOGʻLOM TURMUSH TARZI SHAKLLANTIRISHDA STRESS OMILLARINING TAʼSIRI //YANGI OʻZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 23-26.
2. Gulhayo M., Shohbozbek E. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI UZLUKSIZ TAʼLIMNI RIVOJLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 117-124.
3. Bozorov O. SOGʻLOM TURMUSH TARZI–FAROVON HAYOT GAROVI //Conferencea. – 2024. – C. 1-4.
4. Oyidinoy M., Shohbozbek E. OʻZBEKISTONDA MAKTABGACHA TAʼLIM VA BOSHLANGICH TALIM OʻRTASIDA BOLALARNING MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 125-131.
5. Siroj R. O. Z. YOSHLARDA SOGʻLOM TURMUSH TARZI RIVOJLANISHIDA MILLIY VA DUNYOVIY QADRIYATLARNI UYGʻUNLASHTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. 1. – C. 184-186.
6. Muruvvat A., Shohbozbek E. OʻZBEKISTONDA MAʼNAVIY VA AHVOQIY QADRIYATLARDA MAKTABGACHA TAʼLIMNING ROʻLI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 246-253.
7. Tilloyeva N., Zubaydova N. SOGʻLOM TURMUSH TARZI: MUHIM JIHATLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR //PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – T. 1. – №. 6. – C. 234-238.
8. Gulbahor O., Shohbozbek E. OʻZBEKISTONDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI UZLUKSIZ TAʼLIMNI RIVOJLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 77-82.

9. Zaynabxon S., Shohbozbek E. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING ROLI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 3. – С. 187-197.

10. Ергашбаев Ш. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.